



Korxonalar va tashkilotlar

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)

2018 yil yanvar– may holatiga

RAQAMLAR:

- Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni **870 taga o'sdi**
- Faoliyat ko'rsatmayotgan korxonalarining ulushi **-0,8 f.p kamai-gan.**
- Tugatilgan korxonalariga nisbatan yangi tashkil etilgan korxonalar soni **768 taga oshgan.**


2018 yilning yanvar-may oyida Respublikada 1266 korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etildi, bu esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 231 ga ko'pdir.

Shuningdek faoliyati tugatilgan korxonalar va tashkilotlarning soni o'tgan yilning shu davriga nisbatan 30,4 % ga oshgan hamda ularning soni 498 ni tashkil etganligini kuzatish mumkin.

Buning natijasida joriy yilning boshiga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni 870 (6,3 %) ga o'sgan hamda ularning umumiy soni 14612 tani tashkil etgan.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning asosiy ulushi Nukus shahrida (32,6 %), To'rtko'l (9,5 %), Beruniy (9,0 %) va Amudaryo (7,1%) tumanlarida kuzatilmoqda.


Hududlar kesimida faoliyat yuritayotgan korxonalar va tashkilotlar soni
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda



**Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar
va tashkilotlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishi**
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari, 2018 yilning 1 iyun holatiga)

	Ro'yxatdan o'tgan		Faoliyat ko'rsatayotgan	
	birlik	jamiga nisbatan %	birlik	jamiga nisbatan %
Qoraqalpogiston Respublikasi	15159	100,0	14612	100,0
Nukus sh.	4848	32,0	4715	32,3
<i>tumonlar:</i>				
Amudaryo	1103	7,3	1072	7,3
Beruniy	1258	8,3	1209	8,3
Qanliko'l	405	2,7	394	2,7
Qorao'zak	427	2,8	425	2,9
Kegeyli	443	2,9	441	3,0
Qo'ng'iro't	883	5,8	826	5,7
Mo'ynoq	236	1,6	232	1,6
Nukus	625	4,1	601	4,1
Taxiatosh	394	2,6	372	2,5
Taxtakopir	288	1,9	279	1,9
To'rtko'l	1543	10,2	1440	9,9
Xo'jayli	787	5,2	734	5,0
Chimboy	595	3,9	567	3,9
Shumanay	362	2,4	351	2,4
Ellikkala	962	6,3	954	6,5

Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlar va faoliyatsizlarning ulushi, % da




Korxonalar va tashkilotlarning umumiy sonida faoliyat ko'rsatayotganlarning ulushi 96,4 %ni, shu bilan birga jami korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan faoliyat ko'rsatmayotganlarning ulushi 3,6 % ni tashkil etganligini ko'rsatmoqda va bu ko'rsatkich esa yil boshiga nisbatan taqqoslanganda - 0,8 f.p. kamaygan.


■ faoliyat ko'rsatayotganlar ■ faoliyatsizlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha jami faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning umumiy soniga nisbatan 20,8 % savdoda, 12,6 % qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 10,3 % qurilishda, 10,4 % sanoatda, 5,9 % yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, 5,1 % tashish va saqlash, 2,0 % axborot va aloqa, 1,8 % sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish va 31,1 % boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri keladi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari) % da




Ro'yxatga o'tgan va faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning o'sish dinamikasi (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari), birlikda




2018 yil yanvar-may holatiga 1266 ta korxonalar va tashkilotlar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 22,3 % ga ko'pdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar Nukus shahrida (374 ta), To'rtko'l (107 ta), Amudaryo (104 ta) va Kung'iroq (86 ta) tashkil etilgan. Eng kam Taxtako'pir (29 ta), Kegeyli (28 ta) hamda Mo'ynoq (32 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Hududlar bo'yicha yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning soni, birlikda



Agar iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ko'rsak eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (222 ta), savdoda (203 ta), sanoatda (183 ta), qurilishda (159 ta) sohalarida tashkil etilgan. Eng kami esa axborot va aloqada (11 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (24 ta), hamda tashish va saqlash (42 ta) tashkil etilganligi kuzatilmoqda.

Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi soni, birlikda



Yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yillar kesimidagi soni, birlikda

	2017 yil yanvar-may holatiga.	2018 yil yanvar-may holatiga.
Jami:	1036	1266
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	243	222
Sanoat	248	183
Qurilish	114	159
Savdo	165	203
Tashish va saqlash	38	42
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	82	67
Axborot va aloqa	24	11
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	18	24
Boshqa turlari	104	355

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda (-1,2 f.p), tashish va saqlashda (-0,5 f.p), axborot va aloqada (-0,2 f.p) kamayganligi, buning natijasida qurilishda (+0,6 f.p.), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (+0,6 f.p.), sanoatda (+0,3 f.p.) yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda (+0,1 f.p.), hamda boshqa faoliyat turlarida (+0,3 f.p) ulushining o'sishiga olib keldi.

Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha o'tgan yilning shu davriga nisbatan ulushi, foiz punktda


Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	01.06.2018 y.	01.06.2017 y.	farqi (+-)
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1,8	3,0	-1,2
Tashish va saqlash	5,1	5,6	-0,5
Axborot va aloqa	2,0	2,2	-0,2
Qurilish	10,3	9,7	0,6
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	12,6	12,0	0,6
Sanoat	10,4	10,1	0,3
Boshqa turlari	31,1	30,8	0,3
Yashash va ovqatlanish bo'yicha	5,9	5,8	0,1
Savdo	20,8	20,8	0,0

Tashkiliy-huquqiy shakllari tasniflagichi bo'yicha faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalarining umumiy soni (fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari).

2018 yil 1 iyun holatiga 14612 ta tijorat shaklidagi korxonalar va tashkilotlar faoliyat ko'rsatayotgan bo'lib, shundan xususiy korxonalar – 2795 ta, oilaviy korxonalar – 548 ta, mas'uliyati cheklangan jamiyatlar – 7548 ta, aktsiyadorlik jamiyatlari – 31 tani va boshqalar 326 tani tashkil etadi.




Faoliyat ko'rsatayotgan yuridik shaxslar-xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tashkiliy huquqiy shakllari bo'yicha taqsimlanishi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni

2018 yil 1 iyun holatiga faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni 90 tani tashkil etdi. O'tgan yilning shu davriga nisbatan 20 taga yoki 28,6 % ga o'sgan. Shuningdek Xorijiy kapital ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalardan 51 tasi qo'shma korxonalar, 39 tasi esa xorijiy korxonalar hisoblanadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar tarkibida qo'shma korxonalar va xorijiy korxonalarning soni, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda




Xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi Nukus shahar 19 ta (21,1 %), Kegeyli, Qo'ng'iro't, Moynoq va Taxiato'sh tumanlarida 7 tadan (7,8 %) hissalariga to'g'ri keladi. Eng kam xorijiy kapital ishtirokida tashkil etilgan korxonalar To'rtko'l va Shumanay tumanlarida 2 tadan (2,2 %), Ellikkala tumanida 1 ta (1,1 %), hissalariga to'g'ri keladi. Bu esa mazkur hududlarda xorijiy hamkorlar bilan ishlashni, investitsiyalar jalb etish borasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan ishlarni yanada rivojlantirishni talab etadi.

Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining hududlar kesimidagi soni, birlikda



Agar faoliyat yuritayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari kesimida ushbu ma'lumotlarni 2018 yil 1 iyun holatiga ko'rsak eng ko'p sanoatda 46 ta (51,1 %), qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi 23 ta (25,6 %), savdoda 13 ta (14,4 %) tashkil qilgan, eng kamlari esa yashash va ovqatlanish hamda hamda sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda 1 tadan (1,1 %), tashkil qilgan. Shundan ko'rinib turibdiki faoliyat yuritadigan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarining asosiy qismi sanoat va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi faoliyat turiga to'g'ri kelarkan. Shuningdek eng kam ulushi esa yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarda, sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yilning yanvar-may oyida xorijiy kapital ishtirokidagi ro'yxatdan o'tgan yangi korxonalarining soni 12 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich esa o'tgan yilning shu davriga nisbatan 8 taga ko'paygan yoki 3,3 baravarga oshgan.


Bunda, Pokiston Islom Respublikalarida – 4 ta, Xitoy Xalq Respublikasi 3 ta, Qozog'iston, Rossiya Federatsiyasi va Turkiya Respublikalarida – 2 tadan hamda Janubiy Koreya Respublikasi va Hindiston Respublikasi- 1 tadan va boshqa davlatlarda 4 tadan yangi korxonalar ro'yxatdan o'tgan

Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning davlatlar kesimidagi soni, (yanvar-aprelga) birlikda



Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ko'radigan bo'lsak, asosan qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 8 ta, sanoatda 2 ta, qurilish va savdoda 1 tadan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar yangi tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha soni, birlikda



Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni


2018 yil 1 iyun holatiga Respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning soni 11147 tani tashkil qilgan. Bu ko'rsatkich 2017 yil 1 may holatiga qaraganda 9,2 % ga oshgan. Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi ya'ni 3900 tasi (35,0 %) Nukus shahriga, 1198 tasi (10,7 %) To'rtko'l tumaniga, 950 tasi (8,5 %) Beruniy hamda 787 tasi (7,1 foizi) Amudaryo tumanlari hissalariga to'g'ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar soni dinamikasi, birlikda



Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida faoliyat ko'rsatayotgan jami 11147 ta kichik korxonalar va mikrofirmalarning 3016 tasi (27,1 %) – savdoda, 1784 tasi (16,0 %) - qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida, 1497 tasi (13,4%) - qurilishda, 1490 tasi (13,4 %) - sanoatda, 854 tasi (7,7 %) - yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida, 736 tasi (6,6 %) - tashish va saqlashda, 255 tasi (2,3 %) - axborot va aloqa sohasida, 187 tasi (1,7 %) - sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatishda, shuningdek 1328 tasi (11,8 %) - boshqa faoliyat turlari hissalariga to'g'ri keladi. Shundan ko'rinib turibdiki, faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning asosiy qismi sanoat va savdo faoliyat turlariga to'g'ri keladi. Shuningdek, eng kam ulushi esa sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar hamda axborot va aloqa faoliyat turlariga to'g'ri keladi.


Faoliyat ko'rsatayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



2018 yil yanvar-may holatiga 974 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar yangi tashkil etilgan. Bu esa 2017 yilning shu davriga nisbatan qaraganda 15 taga kamdir. Eng ko'p yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar Nukus shahrida (319 ta), To'rtko'l tumanida (91 ta), Amudaryo tumanida (89 ta) va Nukus tumanlarida (67 ta) tashkil etilgan. Eng kam Taxtakupir tumanida (16 ta), Mo'ynoq tumanida (21 ta) hamda Kegayli (19 ta) tumanlarida tashkil etilgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida esa eng ko'pi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida (222 ta), savdoda (203 ta), sanoatda (183 ta) va qurilishda (159 ta) tashkil etilgan. Eng kam esa axborot va aloqada (11 ta), sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlarda (24 ta) hamda tashish va saqlashda (42 ta) tashkil etilgan.


Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari kesimidagi ulushi, % da



Oilaviy korxonalar soni


Yuridik shaxs sifatida davlat ro'yxatidan o'tgan oilaviy korxonalar soni - 2018 yilning 1 iyun holatiga 574 tani tashkil etib, ulardan 548 tasi yoki 95,5 % faoliyat yuritadi. Bu ko'rsatkich o'tgan yilninga shu davriga nisbatan olganda davlat ro'yxatidan o'tganlarning hamda faoliyat ko'rsatayotganlarning umumiy soni o'rtacha **14,1%**ga oshganligini ta'kidlash lozim.

Oilaviy korxonalar sonining o'sish dinamikasi, birlikda



Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarining Iqtisodiy faoliyat turlari kesimida qaralganda oilaviy korxonalarining 30,5 % yoki 167 tasi yashash va ovqatlanish xizmatlari, 24,8 % yoki 136 tasi sanoat, 23,2 % yoki 127 tasi savdo, 7,7 % yoki 42 tasi qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi, 1,8 % yoki 10 tasi axborot va aloqa, 2,0 % yoki 11 tasi sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, 0,7 % yoki 4 tasi qurilish, 0,4 % yoki 2 tasi tashish va saqlash hamda 8,9 % yoki 49 tasi boshqa faoliyat turlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Faoliyat ko'rsatayotgan oilaviy korxonalarni iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ulushi, % da



Qoraqalpog'iston Respublikasi Statistika boshqarmasi

Statistik registrlarni yuritish bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

Z.Qalmuratova
(0371) 230-82-23



Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registri (KTYDR) ma'lumotlari asosida tayyorlangan